



OZOD SHAROFIDDINOVNING ILMIY MEROsi

Jo'ramirzayev Diyorbek Erkin o'g'li

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti talabasi

O'zbekiston, Toshkent sh

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10208532>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- November 2023 yil
Ma'qullandi: 24- November 2023 yil
Nashr qilindi: 27-November 2023 yil

KEYWORDS

*ijod, erkinlik, munaqqid, tanqid,
jasorat, tafakkur, portret,
tarjima, ilmiy meros.*

ABSTRACT

*O'zbek adabiyotida adabiy tanqidchilik matabining
asoschisi tarjimon va mohir munaqqid, "O'zbekiston
Qahramoni" Ozod Sharofiddinovdir. Ozod Sharofiddinov
adabiyot maydonida o'z aytar so'zi va o'ziga xos ilmiy
merosga ega inson inson hisoblanadi. Hamisha iste'dod
egalari vaadolat tuyg'usini himoya qilgani, o'zi va so'zi
uyg'unligi, hamda turli xiladolatsizliklar, ijod erkinligi
tushunchasi yuqori turganligi sababli Ozod domla
nafaqat adabiy muhitda, balki keng jamoatchilik
o'rtasida ham hurmat qozongan inson. Uning yaratgan
asarlarida insonning turli xil kechinmalari,
vatanparvarlik tuyg'ulari, ijodkorga erkinlik kerakligi va
doim inson yaxshilik qilishi kerak kabi g'oyalar yotadi.
Ushbu maqola adibning asarlari, e'tiroflari va
zamondoshlari fikrlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.
Bundan tashqari Ozod Sharofiddinovning shaxsiy
yondoshuvi, adabiy faoliyati, va ilmiy murojaatlari
haqida to'xtalib o'tilgan.*

Ozod Sharofiddinov yozuvchi, adabiyotshunos, o'qituvchi, tarjimon va munaqqid. Adibning butun ongli hayoti, ilmiy va pedagogik faoliyati Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) bilan bog'liq. Olim deyarli butun umri davomida shu oliv o'quv dargohida samarali faoliyat ko'rsatib, talabalarning sevimli muallimiga aylandi. Hozirgi kunda mamlakatimizning ilm-fani, adabiyoti, madaniyatiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan mutaxassislar adibning shogirlari hisoblanadi. Bundan tashqari 1996-1997 yillarda "Tafakkur" jurnali bosh muharriri o'rinnbosari, 1997-yildan to umrini oxiriga qadar "Jahon adabiyoti" jurnali bosh muharriri vazifalarida ishlagan paytlarda sermahsul va barakali yillar bo'ldi. Ozod Sharofiddinov bu jurnalni roppa-rosa 100ta sonini tayyorlashga ulgurdi. Bu vaqt davomida bu jurnalda jahon adabiyotining eng durdona asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib kitobxonlarga yetkazildi

1. Adabiy merosining asosiy ko'rsatkichlari

Munaqqid asarlari chuqur mushohada qiladigan, har qanday holatda yaxshilikka intilish, insonparvarlik, adolat tuyg'ular bilan sug'orilgan. Bu insonni o'z ishining ustasi,

munaqqidchilikning ustuni, portretnavis sifatida ko'rishimiz mumkin. Negaki u yozuvchi va shoirlar hamda jadidlar haqida ham turli mavzularda asarlar yozgan. Xususan XX asrning 60-80 yillarida Cho'lpon hayoti va ijodini targ'ib qilishga intiladi. Ozod Sharafiddinov o'zbek adabiyotining Oybek G'ofur G'ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Said Ahmad, Zulfiya singari namoyondalar haqida portretlar yaratdi.

- "Zamon. Qalb. Poeziya" (1962);
- "Adabiy etyudlar" (1968)
- "Is'tedod jilolari" (1976)
- "Birinchi mo'jiza" (1979)
- "Talant xalq mulki" (1979)
- "Adabiyot -hayot darsligi" (1981)
- "Go'zallikni izlab" (1985)
- "Abdulla Qahhor" (1988)
- "Cho'lponni anglash" (1994)
- "Sardaftar sahifalari" (1999)
- "Dovondagi o'ylar" (2001)
- "Ijodni anglash baxti" (2004)

Adib tarjimon sifatida: Ozod Sharafiddinovning adabiy faoliyati o'zbek adabiy muhitida katta e'tibor qozongan, uning yaratgan asarlar va olib borilgan ilmiy faoliyat orqali o'zbek adabiyoti va tafakkurining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu faoliyat, muhiti, adabiy tarixni yanada boyitib, yangi g'oyalar, mavzular va ma'naviy qadroiyatlar bilan boyib bordi. Ozod Sharafiddinovning o'zi o'ttizga yaqin kitob nashr ettirdi. Uning besh yuzga yaqin maqola, taqrizi bosilib chiqdi. Bundan tashqari adibni tarjimachilik sohasida ham qalam tebratganini ko'rishimiz mumkin. Bir yuz ellikka yaqin asarni o'zbek tiliga tarjima qildi. Ularning salkam yarmi rosmana roman hajmidagi asarlar ekanligi e'tibor olinsa, Ozod Sharafiddinov tarjimon sifatida ham naqadar samarali mehnat qilgani yaqqol namoyon bo'ladi. O.Sharafiddinov o'zining tarjimon, muharrir, noshir sifatidagi faoliyatini V.Belinskiy, N.Dobrolyubov kabi ulug' munaqqidlarning asarlarini tarjima qilish, nashr etish bilan boshladi. Shuningdek jahon adabiyotining taniqli yozuvchilari asarlarini tarjima qildi. Xususan, L. Tolstoyning "Iqrornoma", P.Koeloning "Al-Kimyogar", A.Sevelaneng "To'xtating samolyotni, tushib qolaman" kabi asarlarini mahorat bilan o'zbek tiliga o'girdi. O'zbek o'quvchilari o'tgan asr 50-yillarida Ozod Sharafiddinovning sa'y-harakatlari, kuyinchakligi tufayli jahon badiiy-estetik tafakkurida chuqur iz qoldirgan bu ulug' mutafakkirlarning adabiyot va ijtimoiy hayot to'g'risidagi salmoqdur maqolalari bilan tanishdilar. Zamonaviy adabiy tafakkur shakllanishi, kishilarning estetik didi o'sishiga samarali ta'sir ko'rsatgan ushbu maqolalar endilikda noyob manba bo'lib qoldi.

Adabiy tanqidchilik maktabi asoschisi O'zbekiston Qahramoni, professor O.Sharafiddinovdir. Adabiy tanqidchilik, adabiyotshunoslik ilmiy ijodning yangi sohasi sifatida XX asrning 60-yillaridan o'zini to'la namoyon qildi. G'oyat qisqa fursatda O'zbekistonda ham "adabiy tanqidchi" degan kasb paydo bo'lди. Adabiy tanqidchilik adabiy jarayonga ta'sir ko'rsatish barobarida, jamiyatda muayyan ijtimoiy fikr shakllanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. U jamiyat hayotida ta'sirchan kuchga aylanib, adabiyotning o'rnini belgilaydigan qudratga erishdi va o'z namoyandalarini yaratdi. Ularning adabiy-tanqidiy maqola, taqrizlari, kitoblari xuddi adib, shoir, dramaturglarning asarlari kabi e'tibor qozondi.

Bu ishga butun umrini bag'ishlagan adabiyotshunos, munaqqidlar orasida Ozod Sharafiddinov nomi alohida ajralib turadi. Bu maktab haqida so'z ketganda Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov, Norboy Xudoyberganov, Abdug'afur Rasulov, Ibrohim G'afurov kabi taniqli munaqqidlar nomi tilga olinadi. Chunki ularning adabiy-tanqidiy maqolalari, kitoblarisiz o'zbek adabiy tanqidchiligin tasavvur qilib bo'lmaydi. Ozod Sharafiddinov ana shunday tabarruk maskanda o'ziga xos ilmiy maktab yaratdi. Bu maktabning faol davomchilaridan biri Umarali Normatovdir. Ozod Sharafiddinov adabiy tanqidchilik maktabi an'analarini izchil davom ettirayotgan bu ulkan olim ustoz bilan yonma-yon ishladi va mudir sifatida yigirma olti yil O'zbekiston Milliy universitetida kafedrani boshqardi. Ellik yildirki, adabiyotshunos, munaqqidlardan hech kim ko'p maqola chop ettirish bo'yicha Umarali Normatovdan o'tolgan emas. Olimning mingdan ortiq maqollari, 30 monografiya va ilmiy to'plamlari, 15 shogirdga ustozlik qilgani ayni 1991-2011-yillarga to'g'ri keldi. U asos solgan XX asr o'zbek adabiyoti kafedrasi zamonaviy adabiyot sohasida dunyo va mamlakat uchun yetuk kadrlar tayyorlab bergen ilmiy maktabga aylandi. Bu kafedrada Ozod Sharafiddinov adabiy tanqidchilik maktabi samarali davom etdi. Maktabning yetuk olimlaridan biri professor Abdug'afur Rasulovdir, u ham Fan arbobi unvoni bilan taqdirlangan. Uning shijoati tufayli Ozod Sharafiddinov adabiy tanqidchilik maktabi an'analarini davom etib, bu maktab ayniqsa tanqid tarixi va nazariyasi borasida jiddiy yutuqlarga erishdi. Sanjar Sodiqov ham universitetda faoliyat ko'rsatadi. Uning XX asr o'zbek adabiyoti, hozirgi adabiy jarayon fanlari bo'yicha yaratgan darslik, qo'llanmalari o'ttiz yildan beri mamlakatimiz olyi o'quv yurtlarida eng e'tiborli manba sifatida o'qitib kelinadi.

E'tirof. O'zbek adabiyotining ulkan namoyondalaridan biri Ozod Sharafiddinov adabiyot oldidagi xizmatlari munosib taqdirlandi. Xususan, Beruniy domidaga davlat mukofoti laureti (1970) "Mehnat shuhrati" (1997) "Buyuk xizmatlari uchun" (1999) ordenlari, "O'zbekiston Qahramoni" (2002) unnvoni bilan taqdirlanadi.

Olim haqida fikrlar. "O'ylaymanki, o'zini o'zbek xalqining farzandi degan har qaysi inson ana shunday fidoyi yurtdoshlarimiz bilan cheksiz, faxrlanadi, unib- o'sib kelayotgan bolalari, shogirdlariga ma'naviy jasorat timsoli sifatida aynan mana shunday odamlarni namuna qilib ko'rsatadi. Va hech shubhasiz, umr bo'yi el-yurt manfaati, vatan istiqboli uchun kurashib yashaydigan shunday qahramon farzandlari bor xalq hech qachon kam bo'lmaydi".

Islom Karimov

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti

"Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asaridan

"Ozod Sharafiddinov deganda, avvalambor, ko'z oldimizga xudo bergen is'tedod sohibi keladi. Ozod aka mana shu betakror qobilyatini aniq tarixiy maqsadlarga yo'naltira oladi".

Abdulla Oripov

O'zbekiston xalq shoiri

"Ozod tinib-tinchimaydaigan, har bir voqeaga shaxs sifatida munosabatini o'z vaqtida bildira oladigan hozirjavob olim, adib, pedagogdir. Shu bezovta qalb egasi, do'stlarga mehribon, shogirdlarga qattiqqo'l do'stimiz, hayotning jami achchiq-chuchuqlarini tatib ko'rgan birodarimiz Ozod hamisha do'stu yoronlari, shogirdlari ardog'ida".

Said Ahmad

“O’zbekiston Qahramoni”

“Ozod Sharafiddinov anchagina qiyichiliklarni boshdan kechirdi. Bunga aksariyat hollarda uning cho’rtkesarligi, o’z fikrlarini xolisona va dadil aytishga moyilligi sabab bo’lardi”

Matyoqub Qo’shjonov
O’zbekiston Respublikasi fan arbobi

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O. Sharafiddinov. Zamon. Qalb. Poeziya. Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1962.
2. O. Sharafiddinov. Iste’dod jilolari. Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976.
3. O. Sharafiddinov. Cho’lponni anglash. Toshkent, „Yozuvchi“, 1994.
4. O. Sharafiddinov. Sardaftar sahifalari. Toshkent, „Yozuvchi“, 1999.
5. Sharafiddinov. Prezident. Toshkent, „Adolat“, 2003.
6. Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti (nuu.uz)

